

O‘ZBEK XALQ DOSTONLARIDAGI QAHRAMONLIK OBRAZLARI

Qodirberganova Mehrishoda*CHDPU O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs talabasi***Ilmiy rahbar: Nafisa Rahmonova**

Annotatsiya. *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi boy va rang-barang bo‘lib, uning eng muhim janrlaridan biri -dostonlardir. Dostonlarda xalqning orzu-umidlari, ijtimoiy hayoti, axloqiy-etik qarashlari, ayniqsa, qahramonlik, vatanparvarlik, mardlik singari yuksak fazilatlar aks etadi. Ushbu maqolada Kuntug‘mish, Ravshan ,Go‘ro‘g‘li ,dostonlari asosida o‘zbek xalq dostonlarida qahramonlik obrazlari qanday ifodalangani tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar. *Doston, baxshi, Alpomish, Kuntug‘mish, Go‘ro‘g‘li, o‘zbek xalq dostonlari, nomoddiy ,madaniy meros.*

Xalq qahramonligi madh etilgan dostonlar har bir satrida milliy mafkura, milliy g‘oya va qadriyatlarimizni, shuningdek, xalqning erkin, farovon hayot kechirish haqidagi orzu-umidlarini ifoda etadi. Ana shu jihatlari bois bu dostonlar avloddan avlodga katta qiziqish va mehru ehtiros bilan tinglab kelinadi, har yangi avlod ularni o‘z tafakkuri bilan boyitib, keyingilariga ardoqlab yetkazadi. O‘z xalqining tili, madaniyati va urf-odatlariga mehr va hurmatni singdirish orqaligina insonni o‘z Vataniga fidoyi, haqiqiy vatanparvar qilib tarbiyalash mumkin. Shu boisdan, bunday komil insonni shakllantirish uchun asrlar davomida shakllanib kelgan milliy an‘analarni chuqur o‘rganish, ulardagi milliy va umuminsoniy g‘oyalarni bugungi yosh avlod tafakkuriga singdirish muhimdir. Bu esa, o‘z navbatida, xalq og‘zaki ijodiga, ayniqsa, epik janrning eng salmoqli namunasi bo‘lgan xalq dostonlariga murojaat qilishni taqozo etadi. Har bir xalqning qalbida chuqur o‘rnashgan, sevib ardoqlanadigan, afsonaviy pahlavonlari bo‘ladi. Xalqimiz esa azaldan o‘z qonida jo‘sh urgan ilohiy kuch va ruhiy qudratga munosib bo‘lishga intilib, farzandlarini mard, halol, jasur, va kerak bo‘lsa el-yurt uchun jonini ham fido qilishga tayyor insonlar qilib tarbiyalab kelgan. Shu ma’noda xalq og‘zaki ijodining eng nodir namunalaridan biri bo‘lgan “Alpomish” dostoni -millatimizning o‘zligini, or-nomusi va qahramonlik ruhi ila yashab kelgan tarixini ifodalovchi bebaho qo‘shiqdir. Xalqimizning o‘tmishi, g‘ururi va qahramonlik an‘analari uzviy tarzda mujassam bo‘lgan bu dostonni xalq “Alpomish” orqali o‘zining bitmas-tuganmas tarixiy dostonini yaratgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Kuntug‘mish” dostoni o‘zbek xalq qahramonlik epikasi namunalaridan biri bo‘lib, unda Kuntug‘mish to‘ra obrazida ideal qahramon siymosi gavdalanadi. U yoshlikdan ilm-hunar o‘rganadi, o‘n to‘rt yoshdan boshlab sipohiylik bilan shug‘ullanadi. Qilichbozlik, ovchilik,

nayzadastlik kabi fazilatlar bilan ajralib turadi, *“Otini Kuntug‘mish to‘ra der edi. O‘n to‘rtga kirguncha ilm-hunar, kasb-kamolot hosil qilib, o‘n to‘rtidan o‘tgandan keyin sipohlik ishlariga yuz keltirib, qilich chopmoq, miltiq otmoq, chirishbozlik, ko‘pkaritozlik, nayzadastlik, garovbastlik ishlariga ko‘shish qilib, qirqta yigitni yoniga olib, goh tovga, goh ovga shikor qilib yurar edi.”*¹⁴

Jasoratli yetakchi, el-yurt himoyachisi

“Qirqta yigitni yoniga olib, goh tovga, goh ovga shikor qilib yurar edi.” Bu yerda Kuntug‘mish faqat o‘zini emas, butun yigitlar guruhini boshqaradigan, jasur yetakchi sifatida tasvirlanadi. U doimo faol, harakatda va himoyaga tayyor.

Mardlik va g‘ururli yigit sifatida tanilishi

Daryodan chiqib kelgan sandiqni yigitlari bilan tenglik asosida taqsim qiladi, bu esa uning adolatparvar va muruvvatli qahramon ekanini ko‘rsatadi. Bu joyda Kuntug‘mish “Men podshoman, hammasi meniki” demaydi, aksincha, yigitlarga tanlov imkonini beradi.

Qahramonona sabr va bardosh egasi

Xolbekani topish yo‘lida o‘zi noma‘lum joylarga boradi, xalq bilan aralashadi, sadoqat va muhabbat yo‘lida har qanday og‘irlikni yengib o‘tadi. Bu esa uni faqat kuch emas, balki iroda va sabr bilan harakat qiluvchi mukammal qahramon sifatida ko‘rsatadi.

Ravshan -adolatparvar va xalqparvar qahramon . Ravshan - Hasan va Xon Dalilini o‘g‘li bir umr sovuq shamol yemagan ko‘chaga chiqmagan yolg‘iz o‘g‘il. “Ravshan” dostonida esa bosh qahramon Ravshan bahodir siymosida xalq orzusidagi adolatparvar, mustabid kuchlarga qarshi kurashuvchi qahramon gavdalanadi. Ravshan bolalikdan boshlab mardlikka, haqiqat uchun kurashishga da‘vat etuvchi muhitda voyaga yetadi. U dushmanga qarshi kurashadi, begunohlarni himoya qiladi, yovuz kuchlar bilan mardonavor to‘qnashadi. Ravshanning qahramonligi ko‘p hollarda individual emas, balki xalq manfaatini ko‘zlagan faoliyatda ifodalanadi. Bu uning obrazini ijtimoiy ongda xalq himoyachisi, adolat timsoli sifatida shakllantiradi.¹⁵

Jismoniy va ruhiy kuch - Kuntug‘mish ham, Ravshan ham kuchli, jasur, dovyurak obrazlar sifatida tasvirlanadi.

Muhabbat va sadoqat -Qahramonlar yuragida muhabbat, sadoqat, halollik kabi insoniy fazilatlar mujassam.

Adolat va haqiqat uchun kurash - Ravshan xalq uchun kurashsa, Kuntug‘mish o‘z shaxsiy dardini yengib, maqsadiga erishadi.

¹⁴ O‘zbek xalq ijodi –Kuntug‘mish

¹⁵ <https://studmate.ru/ravshan-dostoni-haqida/>

Milliy g‘urur va vatanparvarlik -Ularning harakatlarida xalq qadriyatlariga sodiqlik, milliy g‘urur aks etgan.

Gorog‘li - millat himoyachisi va jasorat namunasi . *Go‘ro‘g‘li -Taka Yovmit elidan Chambil belida davron surib dushmanning dodini berib,qirq yigitni yig‘ib,Silovsin to‘n kiydirib,kuniga kechkisin sergo‘sh qilib,sermoyli palovga*

to‘ydirib,semiz qo‘ydan so‘ydirib,ko‘pkarisini choptirib,olomonga ola sarpo yoqtirib,el xalqning ko‘nglini toptirib yurdi.Podshoh bo‘lsa shunday podshoh bo‘lsa,xalqini o‘ylaydigan hamma narsani faqat xalqi uchun qiladigan adolatli podshoh uchrasin hammaga.Faqatgina farzandsizligi tarflama unday bo‘lmasin farzandga hech Kim zo‘r bo‘lmasin xoh shohlar xoh gadolar ¹⁶“Gorog‘li” dostoni turkiy xalqlarga umumiy bo‘lgan, lekin o‘zbek xalq dostonchiligi ichida ham alohida o‘ringa ega bo‘lgan asardir. Gorog‘li obrazi xalq dardini yuragida his qiladigan, zulmga qarshi bosh ko‘taradigan, adolat va erkinlik uchun jonini tikadigan qahramon sifatida gavdalanadi. U xalq orasidan chiqqan, el dardini el bilan birga his qiladigan haqiqiy milliy bahodirdir. Gorog‘li o‘z xalqining baxti uchun har qanday tahlikali vaziyatga kirishga tayyor. Uning qudrati faqat jangda emas, balki donishmandlik, topqirlik va xalq ishonchini oqlashda ham namoyon bo‘ladi. Bu jihatlar uni epik qahramon sifatida yuksak darajaga ko‘taradi. “Kuntug‘mish”, “Ravshan” va “Gorog‘li” dostonlarida aks etgan qahramonlik obrazlari -o‘zbek xalqining asriy orzulari, e‘tiqodlari va axloqiy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan. Bu dostonlardagi bahodirlar timsolida xalq yoshlarga mardlik, vatanparvarlik, sadoqat, sabr va donishmandlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi. Shuning uchun ham bu dostonlar faqat badiiy asar emas, balki tarbiyaviy, ma‘naviy va milliy qadriyatlarimizning ustuni sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://studmate.ru/ravshan-dostoni-haqida/>
2. O‘zbek xalq ijodi –Kuntug‘mish
3. Ravshan dostonida qo‘llanilgan realiyalar va ularning tasnifi.
4. “Ravshan” dostoni
5. <https://in-academy.uz/index.php/yo/article/download/23062/15238/21741>